



BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING OTA-ONALARNI TA‘LIM TARBIYAVIY JARAYONDA FAOL ISHTIROKINI TA‘MINLASHDAGI SHAXSIY VA KASBIY SIFATLARI

M.X.Muxamadaliyeva

Nizomiy nomli TDPU “Maktabgacha ta‘lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini samarali tashkil etish yo‘llarini ochib beradi, maqoladan foydalanish orqali maktabgacha ta‘lim tashkilotining hamkorlik ishlari samaradorligi va bolalarga ta‘lim-tarbiya berishdagi turlicha faoliyatlar sifatini oshirishga yordam beradi.

Аннотация: В данной статье раскрываются пути эффективной организации сотрудничества с родителями в дошкольных организациях, использование статьи поможет повысить эффективность сотрудничества дошкольных организаций и качество различных мероприятий по воспитанию детей.

Annotation: This article reveals ways to effectively organize cooperation with parents in preschool organizations, the use of the article will help increase the effectiveness of cooperation between preschool organizations and the quality of various activities for raising children.

Kalit so‘zlar: ota-onalar bilan hamkorlik, ta‘lim-tarbiya, rivojlantiruvchi muhit, ta‘lim sifati, hamkorlik samaradorligi, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarda ota-onalar roli, takomillashtirish, mazmun, rivojlanish.

Ключевые слова: сотрудничество с родителями, воспитание, развивающая среда, качество образования, эффективность сотрудничества, роль родителей в дошкольном образовании, совершенствование, содержание, развитие.

Keywords: cooperation with parents, education, developmental environment, quality of education, effectiveness of cooperation, the role of parents in preschool education, improvement, content, development.

Har bir oilada tarbiya berishning o‘ziga xos va mos bir qator muhim qonun – qoidalari borki, unga qat’iy amal qilish tarbiya ishining samarali bo‘lishini ta‘minlaydi. Bu qonun-qoidalarni nisbiy ravishda umumiy deyish mumkin, chunki har bir bola – betakror ijtimoiy mavjudot, ularning o‘ziga xos shaxsiyati, ruhiyati va xulq-atvori bor. Shu bois shunga qarab muomala qilish darkor. Shuning uchun tarbiyada ota-onaning mas’uliyati, obro‘-e‘tibori muhimdir.

Shu bois maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ota-onalar majlislarini tashkil etishdagi vazifalaridan biri ana shu tarbiya jarayonida ota-onalarga yordam berish, ular orasida tajriba almashish imkoniyatlarini yaratishdan iborat. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va boshlag‘ich sinflarda ota-onalar tibbiyot xodimlari, psixologlar hamda pedagoglar bilan birga tashviqot ishlarini olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Ota-onalar bilan suhbatlashish va ularga konsultatsiya berishda sanitariya – oqartuv ishlarining muhim



shaklidir. Shu bilan birga “ko’chma jild (papka)lar” ning tayyorlab borilishi, har bir bolaning ma’lum bir rivojlanish xususiyatlarini aniqlashda yordam beradi. Har bir bolaning o’zi bir olam. Bola tarbiyasini to’g’ri yo’lga qo’yishda barchamiz mas’ulmiz.

Ayniqsa, psixolog maslahati hozirgi kunda muhim ahamiyatga egadir. Oilada bolani to’g’ri tarbiyalash shart-sharoitlarining eng muhim qismi bu:

1. Ota-onalar bolalarini qanday inson bo’lib voyaga yetishishi va qanday fazilatlarga ega bo’lishlarini aniq tasavvur qilishlari kerak.

2. Ota-ona bola xulqini tahlil qilishi, unga to’g’ri yo’lni tanlashi uchun yordam berishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi farzandini tarbiyalayotgan ota-onalarga quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- Farzandlaringiz qandaydir harakatlarni bajarayotgan bo’lsa, u bilan suhbatni boshlab, uning xatti-harakatlariga izoh bering;

- Farzandingiz bilan muloyim, tinchlantiruvchi, tetiklashtiruvchi oxangda gaplashing;

- Agar farzandingiz siz bilan suhbatlashayotgan bo’lsa, uni diqqat-e’tibor hamda hamdardlik bilan eshiting;

- Bolaga nisbatan aniq va qat’iy talab qo’ying;

- Kichkintoy bilan qisqa jumlar yordamida gaplashing;

- Bola bilan bo’ladigan suhbat davomida iloji boricha ko’proq narsalarning nomini aytishga harakat qiling;

- Sizning bolaga qaratilgan tushuntirishlaringiz sodda va tushunarli bo’lsin;

- Bola bilan suhbatda sabr-toqatli bo’ling;

- Boladagi savol berishga bo’lgan intilishni ko’llab-quvvatlang;

- Biron bir ishni yaxshi bajarganda bolani taqdirlash uchun maqtash va o’pib qo’yishdan tortinmang;

- Kichkintoyingizdagi turli narsalarga bo’lgan qiziqishni rag’batlantiring;

- Farzandingizga boshqa bolalar bilan birga o’ynash imkoniyatini yaratishga harakat qiling;

- Farzandingiz yangi taassurotlarga ega bo’lishi va ular to’g’risida so’zlab berishi haqida qayg’uring;

- Kichkintoyingiz bilan birgalikda sayr qiling, xatto ovqatni ham u bilan birga pishiring, har bir bajarayotgan ishingizda farzandingiz "sizga yordam berishini" tashkil qiling;

- Farzandingiz o’z ism-sharifini bilib olishiga ko’maklashing;

- Agar bolangiz mashinachalarni, kemachilar yoki turli xil saqich qog’ozlarni va x.k. yig’ishga kirishgan bo’lsa, bu ishni u bilan birgalikda bajarishga, unga yoqadigan narsalarga nisbatan qiziqish uyg’otishga harakat qiling;

- Farzandingiz bilan birga muzey, ko’rgazma, kutubxonalarga tashrif buyuring;

- Xazil-mutoyiba xissini yo’qotmang;

- Bolangiz bilgan turli o’yinlarni o’ynang;



• Farzandingiz biror narsani gapirib berayotganida uning gapini bo'lmang, bolangiz fikrini tugatmasdanoq "bo'ldi tushundim" deb to'xtatmang. U gapirayotgan gapga qiziqish bilan qarang;

• Bola bajara olmaydigan ishni qilishga uni majbur qilmang;

• Boladan birdaniga ko'p narsa talab qilmang. Dastlab uni mustakil ravishda o'yinchoqlari yoki o'z xonasini tartibga solishga o'rgating;

• "Unaqa emas, mana bunaqa qiling", - deb bolani xadeb to'g'irlayverish yaramaydi;

• "Yo'k, bu qizil emas" degandan ko'ra "bu ko'k" deyish yaxshiroq;

• Bolani boshqa odamlar orasida tanqid qilmang;

• Bolaga nisbatan xaddan tashqari ko'p qonun-qoidalar o'rnatmang. U sizga umuman e'tibor bermasdan qo'yyadi;

• Boladagi o'zgarishlar, ya'ni uning oldinga siljishi va yutuqlari ko'ngildidek emasligi uchun xaddan tashqari tashvishlanmang;

• Farzandlaringizni boshqa bolalar - aka-ukalaringiz, qo'ni-qo'shnilar, tanish-bilish va qarindoshlaringizning farzandlari bilan solishtirmang.

Ota-onalar va tarbiyachilar o'rtasida samarali hamkorlik qilishning tamoyillari:

• Ota - ona va tarbiyachi o'rtasida o'zaro hurmat;

• Ota - onalar va tarbiyachi - bog'cha o'rtasida bo'ladigan muloqatning kelishilgan usulini boshidan belgilab olish kerak;

• Yaqin aloqalarni saqlab turshn uchun, o'zaro kelishgan holda davomli uchrashuvlar tashkil qilish;

• Ota-onalarning tajribasidan kelib chiqib, ularni xona - bog'chadagi turli mashg'ulotlarga jalb etilishi ta'minlash;

• Oilalardagi madaniy xilma-xillikni xurmat qilib, mashg'ulotlar va bog'cha tadbirlari orqali xilma-xillikni targ'ib qilish;

• Oila va bolaning kuchli tomonlariga diqqatni qaratish;

• Ota-onalar va tarbiyachi o'rtasida bola va oilaga tegishli axborot almashilganda, qat'iy ishonchga amal qilish.

Hamkorlik qilishda ishonch juda muhim hisoblanadi. Ota-onalar bola bilan munosabatda meyo'rga rioya qilishi, ya'ni bolaning ongiga, qalbiga, shaxsiga ta'sir etadigan tarbiyaviy choralarni qo'llashda uning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Pedagoglik mahorat - bolani tarbiyalashdagi mohirlik bo'lib, bunga tarbiyachilarni o'rgangandek ota-onalarni ham o'rgatish kerak. Ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni tashviq qilish ishlari ham turli shakllarda olib borilishi mumkin. Masalan, og'zaki (ma'ruzalar, treninglar), nashriy (risolalar, kitoblar, bukletlar), ko'rsatma-obrazli (texnik vositalar, ko'rgazmalar, stendlar, burchaklar). Guruh ota-onalar majlislarining mavzulari uning ishlari bilan uzviy bog'liq bo'lishi shart. Bundan tashqari yillik reja pedagogik bilimlarni tashviq qilishning barcha yo'nalishdagi ishlariga muvofiq kelishi lozim. Ota-onalar majlisda tashkiliy masalalar bilan birga bolalarni tarbiyalashga oid muammolar ham hal qilinadi. Bunda maktabgacha ta'lim pedagogikasi, umumiy pedagogika, pedagogika tarixi, bolalar



psixologiyasi va fiziologiyasi hamda gigiyenasiga oid masalalar yoritilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida. T.: «O'qituvchi», 1967, 88—89-betlar.
2. Hasanboyeva.O.U, Tojiyeva M.X, Toshpo'latova Sh.K, va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Pedagogika kollejlari uchun o'quv qo'llanma (3-nashr). T.: «ILM ZIYO», 2012. – 31,135,137 b.
3. Otavaliyeva.U Bola-tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi Toshkent «O'QITUVChI» 1994.y 8-9
4. “Oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik” Metodik qo'llanma (birinchi nashr) Toshkent: 2020-y. 12, 13, 14 b.
- 5.Qodirova.F.M. “Maktabgacha pedagogika”: O'quv qo'llanma Toshkent «MA'NAVIYAT » 2013 157-b.
6. Qodirova.F.R ,Tashpulatova.SH.K “Maktabgacha ta'lim muassasasida metodik ishlar” Toshkent.2018 yil.
7. Sodiqova.SH “Maktabgacha pedagogika” «TAFAKKUR BO'STONI» TOSHKENT-2013 263, 273b.